

SHASHMAQOM STRUKTURASIDA TASAVVUFIY G'OYALAR VA STRUKTURAVIY QONUNIYATLARNING INTEGRATSIYASI

Narzullayeva Durdona Panji qizi

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa sanati instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shashmaqom tizimining musiqiy-strukturaviy qonuniyatlari hamda ularning tasavvuf ta'limoti g'oyalari bilan o'zaro integratsiyasi tahlil qilingan. Mushkilot va Nasr bo'limlarining ichki tuzilishi, kuy mavzusining rivojlanish tamoyillari, Saraxbor, namud, avj va boshqa maqom unsurlarining falsafiy-semantik mazmuni yoritilgan. Shuningdek, maqom shakllarining ruhiy kamolot, vajd va ma'naviy yuksalish bosqichlari bilan bog'liqligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Shashmaqom, tasavvuf, maqom, Mushkilot, Nasr, Saraxbor, namud, avj, maqom tuzilishi, musiqiy semantika, musiqiy shakl, ma'naviy kamolot.

ИНТЕГРАЦИЯ СУФИЧЕСКИХ ИДЕЙ И СТРУКТУРНЫХ ЗАКОНОВ В СТРУКТУРЕ ШАШМАКОМА

Аннотация. В данной статье анализируются музыкально-структурные законы системы «Шашмаком» и их взаимная интеграция с идеями суфийской доктрины. Выделена внутренняя структура разделов «Мушкilot» и «Проза», принципы развития мелодической темы, философское и смысловое содержание «Саракбора», «намуда», «авджа» и других элементов макома. Также анализируется связь форм макома со стадиями духовного совершенства, экстаза и духовного восхождения.

Ключевые слова: Шашмаком, суфизм, маком, Мушкilot, Проза, Саракбор, «намуд», «авдж», структура макома, музыкальная семантика, музыкальная форма, духовное совершенство.

INTEGRATION OF SUFICIAL IDEAS AND STRUCTURAL LAWS IN THE STRUCTURE OF SHASHMAKOM

Annotation. This article analyzes the musical-structural laws of the Shashmaqom system and their mutual integration with the ideas of Sufi doctrine. The internal structure of the Mushkilot and Prose sections, the principles of development of the melodic theme, the philosophical and semantic content of Sarakhbor, namud, avj and other maqom elements are highlighted. The relationship of maqom forms with the stages of spiritual perfection, ecstasy and spiritual ascension is also analyzed.

Keywords: Shashmaqom, Sufism, maqom, Mushkilot, Prose, Sarakhbor, namud, avj, maqom structure, musical semantics, musical form, spiritual perfection.

KIRISH

Ulug' ajdodlarimizdan bizga ma'naviy meros sifatida yetib kelgan Shashmaqom bugungi kunda jahon hamjamiyati e'tiborini va yuksak e'tirofini qozonib kelayotgan nodir durdonadir[1]. Ushbu holat, shubhasiz, o'ziga xos fundamental asoslarga ega, chunki teran falsafiy hikmatlar ummoni bo'lmish mazkur mumtoz san'at nafaqat o'zbek va tojik madaniyatlari erishgan yuksak cho'qqi, balki Osiyo qit'asi xalqlari san'atidagi favqulodda ahamiyatga molik hodisadir. Shu bilan birga, u butun bashariyat ahlining musiqiy mohiyatni anglash borasida qo'lga kiritgan ulkan tarixiy yutug'i sifatida ham namoyon bo'ladi. Mazkur betakror san'at durdonasi tarkibida jilolanadigan barcha tarkibiy borliq, ya'ni birlamchi ohang tuzilmalaridan tortib, to turlicha hajmdagi qismlar va ularning uzviy turkum ko'rinishlarining barchasi o'zining sermazmunligi hamda o'zaro ichki mantiqiy izchilligi bilan insonni hayratga soladi. Bu tizim odamzod ruhiyatining istalgan oziqasi sifatida uning ma'naviy-ruhiy jihatdan koinot cho'qqisiga qadar yuksalishi uchun zaruriy quvvat manbai bo'lib xizmat qiladi.

Shashmaqomning bunday sirli va sururli sifatlari undagi boshqa go'zal omillar qatorida tasavvuf ta'limoti g'oyalarining chuqur tajassum etilganligi bilan izohlanadi. Bunga maqom tarkibida keladigan ko'plab maxsus istilohlar, xususan, maqom, samo, tasnif, gardun, xona, bozg'uy, talqin, qalandar, samandar, soqiynoma va boshqalar hamda asosiy aytimlarida qo'llanilib kelinayotgan botiniy g'alaliyot ya'ni Hazrat Tabriziy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy va Alisher Navoiy kabi aziz mutafakkirlarning ijodiy namunalari yaqqol ishora etadi. Ushbu maqolada biz Shashmaqom tarkibidagi kuy va aytimlarning ichki tuzilish shakllarini hamda ularning ma'no ifodalarida o'ziga xos tarzda ufurib turgan go'zal ta'limot hikmatlariga bir nazar tashlashni maqsad qildik.

METODOLOGIYA

Bu borada eng avvalo har bir maqomning bosh ma'nosini ixcham shaklda va nisbiy tugallangan holatdagi bayoni bo'lgan boshlang'ich kuy tuzilmalari e'tiborni o'ziga

tortadi. Mazkur musiqiy tuzilmalar nola va qochirim kabi an'anaviy ijroviy usullarning samarali qo'llanishi natijasida "musiqiy mavzu" tushunchasining beqiyos namunalari sifatida jonlanadiki, bunda buyuk ishq dardi ila yongan qalblarning taftini va zavqli iztiroblarini dastlabki darajada his etish imkoniyati tug'iladi. Bunday holat ularning tarixiy kelib chiqish manbalaridan qat'iy nazar yuzaga keladi. Vaholanki, mazkur mavzular orasida ildizlari turli davrlarga mansub bo'lgan, masalan, qadimiy "biramchi tuzilma", "darakchi ohang", kam sonli tayanch ohang qurilmalari va boshqalar kabi namunalar ham mavjuddir.

MUHOKAMA

Ma'lumki, tasavvuf ta'limoti odam va tabiat, odam va olam kabi barcha yaralgan borliqlarni o'zaro aloqadorlik va birlik g'oyasi o'laroq uyg'un tarzda idrok etadi. Ushbu keng qamrovli dunyoqarash san'atda, xususan, musiqada o'ziga xos badiiy tafakkurning qaror topishiga bosh omil bo'lgan edi. Shunga ko'ra, turlicha usluban va musiqiy tuzilmalar maqom matnida tubdan qayta ifoda etilib, o'zining yangi sifatlarini kashf eta boshlaydi. Endilikda ularning har biri yangi ma'nolari bilan sug'orilgan holda inson ruhiyatini yuksak maqsadga, ya'ni vajd holatiga yetaklovchi ma'naviy quvvatlarga ham ega bo'ladi. Bu borada musiqiy rivojlanishning umumiy ta'rifi shunday: maqom mavzusi dastlab quyi pardalarda bayon etilib, o'rta pardalar asosida izchil taraqqiy etadi hamda o'zining yuqori avj darajalariga intiladi va unga erishgach, dastlabki tayanch nuqtaga qaytib yakun topadi. Demak, maqom falsafasi va uning ohanglariga singdirilgan har bir ma'no qatlami dastlab hissiyotlar vositasida tuyuladi, so'ngra kuy oqimi va xotima orqali asarning asl mohiyati ongda to'liq shakllanadi. Ushbu pinhona go'zallik Mushkilot va Nasr bo'limlarida o'ziga xos takrorlanmas jilolar kasb etadi.

Mushkilot bo'limida Tasnifning kuy mavzusi maqom bosqichlariga tayangan holda o'zining o'rta va yuqori avj pardalariga intiladi, rivoj topgani sari uning ichki, botiniy jihatlari yuzaga chiqa boshlaydi. Kuy mavzusining tug'ilishidan tortib to ulug'vor avjiga qadar kechadigan yo'lni "kichik doiradan keng olamga" chiqish deb

atash mumkin. Bu yo'lda musiqiy g'oya to'liqinsimon aylanma harakatlar sehrida to'lib-toshadi, xonalar tuzilishi asnosida tobora qudrat kasb etib, o'zining mahobatli gulyajrog'ini namoyon etadi. Ayni vaqtda, uning botiniy mazmunidagi teran vazminlik, ulug'vorlik va mushohadaviylik holati tobora kuchayib boradi. Mushkilotning Tasniflaridan so'ng namoyon bo'ladigan o'rta-yakuniy bo'tinlari esa boshlang'ich unsurlar bilan uzviy bog'liqlikda yuzaga keladi. Bunda Tasnifning kuy-mavzusi turkum miqyosida yangi sinov mushkilotlaridan o'tadi hamda taraqqiyot ifodasi bo'lgan ohang va o'lchov-ritm o'zgarishlariga uchraydi.


Tarje nomli kuylarda boshlang'ich doira usuli takrorlangani holda, mavzu modifikatsiyasi asosan ichki imkoniyatlar doirasida, ohang-ritm qurilmalarining o'zgarishi bilan bog'liq holda yuzaga keladi hamda xona-bozg'uy nisbatlari vositasida rivoj topadi. Natijada unda yangi musiqiy sifatlar kashf etiladi. Lekin bunga asoslanib mutloq yangi mavzu bayoni xususida hukm chiqarmaslik kerak. Chunki Gardunda qo'llanilgan kuy tuzilmasi aslida Tasnifda ilk bor bayon etilgan mavzuning turkum miqyosida yashayotgan yangi sifat bosqichidir. Gardunlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda avvalgi qismlarda erishilgan tovush-bosqichlari nisbatan erkin qo'llaniladi. Natijada kuyning ravon va pog'onama-pog'ona harakat jarayoniga ko'plab ohang sakramalari qo'shiladi.

Muhammas va Saqil kuylarda esa mavzuning salobati va davomiyligi ortib boradi. Ularning zarb-usullari murakkablashib, katta doira shaklini zabt etadi. Ayni vaqtda, ularda avvalgi qismlarda namoyon bo'lgan muhim jihatlar umumlashtiriladi va bosib o'tilgan mushkilot yo'lga yakun yasaladi. Mushkilotlarning botin mazmuni bo'lgan mushohadaviylik holati Saqillarda o'zining avjiga qadar yuksaladi. Bunda go'yo vaqt o'z oqimini to'xtatadi, tashqi dunyoning shiddatli harakatlari o'z ta'sirini yo'qotib, mutlaq sukunat qaror topadi. Turkum yakunidagi qismlarning ijro sur'ati g'oyatda salobatli va vazmin tus olishi ana shu ruhiy holatning musiqiy ifodasidir. Masalan,

Buzruk maqomi Mushkilotidagi o'lchovlar va raqamlar ushbu jozibali tamoyilning yorqin isbotidir[1:27].

Maqomot gulshanining aytim yo'llarida bo'y ko'rsatgan ma'nolar jilosi cholg'u kuylari qatiga yashiringan ruhoniy yuksalish va qalb kamoloti g'oyalari bilan garchand egizak bo'lsa-da, xonish asnosida tamoman yangicha joziba kasb etadi. Soz sadosidan sadoqat topgan ilk mavzu, inson ovozining sehrli qudrati ila qayta tug'ilib, tinglovchi ko'z o'ngida yanada kengroq, teranroq va sirliroq ma'nolar olamini namoyon etadi.

Ohang bag'riga so'z va nola nafasi kirib kelishi bilan kuy o'zining dastlabki qiyofasini saqlagan holda, mislsiz sifatlar bilan bezaladi. Ushbu muhtasham musiqiy silsilada, dastlabki qadam poydevor bo'lmish Saraxborlarning bosqichma-bosqich yuksalib boruvchi shakliy tarhi butun boshli maqom turkumining rivojlanish yo'lida oltin mezon va o'zgacha yo'l ko'rsatuvchi mayoq bo'lib xizmat qiladi.



Saraxborlarning shakliy tuzilmalari

Shakl tuzilmalarining hikmatlarini anglash borasida ularning lug'aviy ma'nolari ham ahamiyatlidir.

Chunonchi, "muqaddima" so'zi "nutqda asosiy maqsadga ko'chishdan oldin aytiladigan so'zlar", "biror so'zning boshi" singari ma'nolarni anglatadi[2]. Odatda, muqaddimalar maqom aytim yo'llarining boshida keladigan cholg'u kirish qismlaridan iborat bo'lik, ular asosiy mavzu holatini bildiradi. "Daromad" atamasining lug'aviy negizida esa harakat jarayoniga oid serjihat ma'nunlar anglashiladi. Ular asosida tariqat yo'lga kirish, uning "eshigini" ochish, "yo'lning boshlanishi" kabi ma'nolarni keltirib

chiqarish mumkin. Unda asosiy mavzu bayoni quyi va o'rta tabaqa pardalariga pog'onama-pog'ona tayanib, maqom-tamoyili asosida rivojlanadi. Miyonparda hisoblangan fors-tojikcha o'rta parda shakliy bo'linmasida esa mavzu o'rta pardalarni tayanch sifatida o'zlashtirib, yuqori tabaqaga qadar taraqqiy etadi. Dunasr – mavzuning yuqori tabaqa pardalarini zabt etish jarayonini anglatib, bunda odatda, dastlabki bosh pardaga nisbatan oktava yuqoriligida joylashgan tovush tayanch pardasi sifatida egallanadi. Shu bilan birga, dunasr atamasining botiniy ma'nosida tariqat yo'li yakunlanib, Haqiqat darajasi boshlanganligini fahmlash mumkin. Bunda dunasrdagi "du" – ikki, "nasr" – g'alaba, ya'ni mavzuning birinchi zafar yo'li maqom bosqichlari egallanishi bilan hosil bo'lganligi va ayni vaqtda, asosan 2- va 3-oktavalar oralig'idagi tovushlarni qamragan ikkinchi zafar yo'li boshlanganligi anglashiladi.

Bu davrga kelib mavzu rivoj topgan holda takomillashib, o'zining cho'qqisi bo'lgan avj darajalarini namoyon eta boshlaydi[3:9]. Ikkinchi g'alaba yo'li namudlar kelishi bilan ham izohlanadi. Namud – "ayrim sho'balarning boshlanish qismidagi kuy jummlarini boshqa sho'balarning yuqori registrlarida avj sifatida namoyon bo'lishidir"[4]. Maqomlardagi avjlarni so'fiylarning vajd kechinmasi bo'lgan hol jarayoniga qiyoslash mumkin. Hol – "so'fiylarning tariqat yo'lini muvaffaqiyatli o'tganlari evaziga Haq Taolo tomonidan in'om etilgan zavq-shavq lahzasidir". Namudlarni hol yanglig' ahamiyat kasb etishini quvvatlovchi bilvosita dalillar sifatida bir qator qiyosiy kuzatuvlarni keltirish mumkin. Xususan, tasavvuf ilmida 10 ta asosiy hol tasnif etilgan bo'lib[5], ularning har biri o'zining maxsus atama-nomlariga ega: 1. Muraqaba, 2. Qurb, 3. Xavf, 4. Rajo, 5. Muhabba, 6. Shavq, 7. Uns, 8. Itmonina, 9. Mushohada, 10. Yaqin.

Bunga qiyosan aytish mumkinki, maqom san'atida ham o'z nomlariga ega 10 ta asosiy namud (8 ta namud va namud vazifasida keluvchi 2 ta avjlar bilan birga) qo'llanishi ma'lumdir[6:14]. Ular quyidagicha nomlanadi: 1. Uzzol namudi, 2. Muhayyari Chorgoh, 3. Navo namudi, 4. Bayot namudi, 5. Ushshoq namudi, 6. Oraz

namudi, 7. Segoh namudi, 8. Nasrullovi namudi, 9. Zebo Pari avji, 10. Turk avji. Yana bir o'rinli muqoyasa shundan iboratki, "hol" holatlari birin-ketin kelishi mumkin. Ayniqsa, ikki holni bir-biriga ulanib kelishi ko'proq qayd etilgan[5]. Ma'lumki, namudlarning qo'llanishida ham shunga o'xshashlik bor. Masalan, Uzzol namudidan so'ng ko'pincha Muhayyari Chorgoh namudi keladi, yoki Bayot namudiga ulanib Navo namudi hozir bo'ladi va hokazo [7:173]. Shuningdek, namudlarning soni bundan-da ortib kelishi mumkinki, bunday vaziyat hol jarayonida ham kuzatiladi. Aslida bu kabi qiyoslar bejiz emas, chunki har ikki holatda ham ruhda ilhom sodir bo'lishi hodisasi hal etuvchi o'rin tutadi.

Avj pardalarida ilhom zavqini surayotgan hofiz uchta va, hatto to'rttagacha namudlar guruhini namoyon etishi musiqiy amaliyotdan ma'lumdir. Binobarin, maqom avjlari ham mohiyatan, ham shaklan aytim yo'lining markaziy va salmoqli qismini tashkil etadi. Ularda, jumladan, kuy rivojining maqomlar doirasidagi eng oliy darajali usuli qo'llaniladi. Namudlar bilan bevosita bog'liq bu rivoj usulini "sifat usuli" deb tavsiflash mumkin. Shunga ko'ra, Saraxbor bosh mavzui ilk bor quyi tabaqa-pardalarida sadolanar ekan, u o'zining keyingi rivojini o'rta va yuqori tabaqa pardalarida davom ettiradi, unda taraqqiyot ifodasi bo'lgan ohang-ritm va shakl-hajm o'zgarishlari sodir bo'ladi va, nihoyat, avjlarida namudlarning kelishi unga tubdan yeni sifat bag'ishlaydi. Biroq bu holatni musiqaning rivoj omillaridan bo'lgan tazodli muqoyasa usuliga tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki namudlarning kelishi – asar jarayonida dastlabki kuy mavzuining mantiqan eng oliy darajadagi rivoji, erishgan sifat cho'qqisidir. Erishilgan ushbu sifat darajasi nafaqat Saraxbor qismi uchun, balki sho'balarning uzviy turkumlanishida ham ahamiyatlidir.

Ma'lumki, Saraxborlarda kelgan namudlarni odatga ko'ra, Nasr va Talqin sho'balaridan olingan boshlang'ich kuy tuzilmalari sifatida ta'riflaymiz. Ushbu masalani sharh etishda o'zgacha yondashish ham mumkin ko'rinadi. Saraxborlar bosh xabar, bosh mavzu sifatida Talqin va Nasr sho'balaridan avval ijro etiladi, samo vaziyati esa ijod

etiladi. Shu asosdan kelib chiqqan holda namud va unga mos keluvchi sho'ba manbalariga qo'yilgan urg'ularni o'zaro almashtirish mumkin. Agar shu tarzda yondashilsa, nazarimizda, sho'balarning turkumlanish qonuniyatlari va ayniqsa, namudlarga ko'proq aloqador bo'lgan Nasr nomli sho'balarning turkumda nufuzi bir qadar oydinlashgan bo'ladi. Bunda "nasr" atamasini Saraxborlardagi "du-nasr"dan keltirib chiqarish barobarida yana Nasrlarni Saraxborlarda erishilgan g'alabaning turkum darajasidagi in'ikosi yanglig' tavsiflash imkoni vujudga keladi. Bu fikrning e'tirofi esa, ayni choqda, maqom sho'balarning turkumlanish qonuniyatlari ham yagona g'oya asosida yuzaga kelganligiga dalolat etadi.

Tavsiflanayotgan ushbu oliy tartib turkumi ravshan etish istagida Buzruk maqomining aytim yo'liga e'tibor qaratamiz. Oliy tartib turkumlari muayyan sho'balarning turkumi bilan-da cheklanmaydi. Bu darajadagi bog'lanmalar turli maqomlar aro ham yuzaga keladi. Masalan, Saraxbori Buzruk sho'basi avjlarida Uzzol va Muhayyari Chorgoh namudlari kelgan boshqa aytim yo'llari bilan ham oliy tartib darajasida bog'lanadi. Shu singari bog'lanmalar esa Shashmaqomdagi qariyb barcha aytim yo'llari nisbatan namoyon bo'lib, buning natijasida umumtizim miqyosida oliy tartib turkumlariga erishiladi.

XULOSA

Demak, Shashmaqom aytim yo'llarining Nasr deb atalishi bejiz emas ekan. Chunki zafar g'oyasi ularning nafaqat alohida olingan har bir sho'basi misolida, balki sho'balarning turkumi bo'lgan Nasr aytim yo'llari darajasida ham asosiy, markaziy o'rin tutmoqda. Maqom yo'llarining turkumlanishi darajasida esa boshlang'ichlarda bayon etilgan kuy mavzusi qismdan-qismga qarab tobora murakkablashib boruvchi zarbusullari asosida yangi sifat namunalari oshkor etadi, hamda shu asno tik chiziqli bo'ylab rivojlanish tamoyilini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajabiy Y. Shashmaqom. I jild. Buzruk. – T., F. G'ulom nomidagi Badiiy Adabiyot nashriyoti, 27-43-betlar.

2. O'zbek tilining izohli lug'ati. M., 1981, 487 b.
3. Rahmonov V. O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at. – T., O'qituvchi, 1983.
4. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. T., 1963
5. Islam. Ensiklopedicheskiy slovar. M.: Nauka, 1991, s. 266.
6. Rajabov I. Maqom asoslari. T., 1992, 14-21-betlar.
7. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. T., 1963, 173-174-betlar.